

Bandlik va mehnat bozori

(dastlabki ma'lumotlar)


2017 yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro viloyati bo'yicha 2017 yil yanvar-dekabrda mehnat resurslari soni **1074,0** ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan **8,6** ming kishiga, yoki **0,8 %** ga o'sishi kuzatildi.

Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni **874,6** ming nafarni (jami mehnat resurslarining **81,4 %**), iqtisodiy nafaol aholi esa **199,4** ming nafarni (**18,6 %**) tashkil etdi.

Viloyatda ish bilan band aholi soni **826,5** ming kishini tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan **0,8 %**ga o'sdi.

Mehnat resurslari sonining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi (2017 yil yanvar-dekabr, ming kishi)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish bilan bandlarning asosiy ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (30,2 %), qurilish (15,2 %), qayta ishlash sanoati (11,5%), savdo (9,9 %) va ta'lim (7,7 %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

E'tibor bering:

- Respublikada ish bilan band aholi soni 2016 yilning mos davriga nisbatan **0,8** foizga oshdi.
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning jami bandlikdagi ulushi **78,5** foizni tashkil etdi.

Ish bilan band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, %da)




Bandlik va mehnat bozori

Viloyat bo'yicha jami ish bilan band aholi sonida davlat sektorida bandlar ulushi **16,8 %** ni, nodavlat sektorda esa **83,2 %**ni tashkil etdi.

Ish bilan band aholi sonining iqtisodiyot sektorlari bo'yicha taqsimlanishi

(2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, %da)



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: L.Jiyanov
(65) 230-83-16